

## **SAID AHMAD HIKOYALARIDA QÖYILGAN MUAMMOLARNING DOLZARBLIGINI VA AHAMIYATI.**

*Turdiyeva Maxliyo Shavkat qizi  
Sirdaryo viloyati Guliston shahar  
Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Said Ahmadning hikoyachilik mahorati, “Qorako‘z majnun” to‘plami va undan o‘rin olgan hikoyalar tahlillariga doir ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada ijodkorning hikoyalariga tanlagan mavzular ko‘lami, ularning dolzarbliji va qo‘yilgan muammolarning nechog‘lik ahamiyatli ekanligi haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqolada yozuvchi ijodi va uning hikoyachilikdagi mahorati ilmiy tahlillar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiylik, hikoya, obraz, syujet, epigraf, xarakter, muammoli vaziyat, kichik epik janr, kompozitsiya, monolog, dialog, tush tasviri, badiiy detal.

O‘zbek adabiyotining zabardast vakili Said Ahmad istiqlol davrida ham salmoqli ijod qila oldi. Adib asarlarining ko‘p qismini ko‘rgan-kechirganlaridan kelib chiqqan holda yozganligi yaqqol sezilib turadi. Mustaqillik yillarda yozgan hikoyalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hajman kichkina bo‘lsa ham kattagina mazmunga egaligi bilan ajralib turadi.

Said Ahmadning ma’no-mazmun ko‘lami keng, kitobxonni ta’sirlantiradigan, yurak-yuragiga yetib boradigan hikoyalarining sanog‘i yo‘q. Bular orasida qamoq lagerlaridagi o‘zi ko‘rgan voqealar asosida yozgan hikoya va xotiralari salmoqli o‘rin egallaydi. Adib "Menga juda qiyin bo‘lgan, chunki o’sha azob-uqubatlarni qaytadan boshimdan kechirishim kerak" degan edi Professor Umarali Normatovga yozgan xatida.

Yozuvchining "Sarob", "Borsa kelmas darvozasi", "Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?" hikoyalari lager, qamoq hayoti haqida bo‘lib, o‘zi ko‘rgan va ishtirok etgan voqealarni qalamga olgan. Ularda roviy(aytib beruvchi shaxs) muallifning o‘zidir. Hikoyalarni o‘qisangiz ayblovlarni ko‘rib kulgingiz keladi. Kulmasdan ilojingiz ham yo‘q. Chunki bu ayblovlar shunchaki qamoqqa olishga bir bahona ekanligini axmoq odam ham biladi. "Borsa kelmas darvozasi" hikoyasida "Rayonda suyug‘oyoqligi bilan nom chiqargan ayolga qarshi ovoz bergen odamni, eri rus bo‘lgani uchun yoqlab ovoz bermagansan, deb millatchilikda ayplashgan va yetti yilga ozodlikdan mahrum etishgan". Qiynog‘-u, azoblar, nohaqliklarni ko‘rib esa, beixtiyor ko‘zingizga yosh keladi.

Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammoi avlodlar silsilasi, otalar va bolalar muammoi, ijtimoiy ruh alohida o‘rin tutadi. Adibning keyingi

hikoyalarida ijtimoiy ruh yanada keskin va yorqin bir tarzda namoyon bo'lgan. "Qorako'z majnun", "Sarob", "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyalarida ona va farzand, ota va o'g'lonlar o'rtasidagi keskin munosabatlar ildizi asr fojiasi, mustabid tuzum siyosati, mafkurasi, axloqiy aqidalarga borib tutashadi, jamiki ko'rguliklar, fojialar mash'um siyosatning mudhish oqibati tarzida ko'rsatiladi. Har bir yozuvchi asarlariga e'tibor qaratganda u yaratgan ijod namunalari o'sha yozuvchining o'ziga xos tomonlarini, uslubini belgilab beradi. Said Ahmad hikoyalarining o'ziga xos tomoni esa muhim xayotiy masalalarni hajman kichik bo'lgan hikoyaga moslab krita olishi bilan xarakterlanadi. Borsa kelmas darvozasi" hikoyasi ham shu mavzuda ekanligini ta'kidladik, bunda "xalq dushmani" qizining yig'lab aytgan qo'shig'idan shunday satrlar epigraf-bosh so'z qilib keltiriladi:

Bu vatan qanday vatandir, har go'shasida turmalar,  
Qo'ngani bir yer topolmay osmonda yig'lar turnalar...

Vatanning o'sha yillardagi manzarasini faqat Said Ahmadgina shu tarzda o'ta milliy, jonli, betakror tarzda ifodalashi mumkin.

Hikoyada ozod bo'lismi vaqt kelgan Dadajonga maxsus kengash yana besh yil qamoq jazosini berishi, "alvasti ko'prik"da yetti kishining otilishi, qahramonning lagerda ko'rgan azob-uqubatlari tasviri kitobxonni ham larzaga soladi. Hikoyani "xalq dushmaning qizi kuylagan qo'shiq bilan tugatadi:

Siz asr bo'lgan qafasni tishlarim birlan buzay,  
Buzmasam maxshar kuni bag'rimni armon tirnalar...

Bu hikoya mavzusi ham yozuvchi hayotidan olingan voqealardan olingan.

Yuqoridagi bayt adibning ushbu turkum hikoyalaridagi boshqa bir g'oyat muhim jihatga ishoradir. Asarlarda qalamga olingan bir-biridan mudhish, malomatli, g'amg'ussaga to'la lavhalar bag'ridan qandaydir odamga dalda beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan qudrat, zulmatni yoritadigan sirli-sehrli nur barq urib turadi. Davr shafqatsizliklari tufayli aksar maxbuslar beshafqat toshbag'ir kimsalarga aylanib ketganlar. Ayni paytda o'sha beshafqat zotlar goho bandai ojiz-inson bolasi sifatida o'zligiga qaytib, dilkash suhbatlar quradilar, o'zaro hazil mutoibalarga kirishadilar, toshga aylangan bag'rlar yumshab, tund chehralarda tabassum paydo bo'ladi.

Yozuvchining benazir yumoristik iste'dodi musibatlar maskanida ham kulgu, hazil-mutoyibalar uchun ham imkon topadi. Eng muhimi deyarli har bir hikoyada o'zligini, qalbidagi imon-e'tiqod, ona-yurt, o'zgalarga himmat, muruvvat tuyg'usini yo'qotmagan "boshi toshdan", alomat matonatli insonlarga duch kelamiz. "Taqdir, taqdir buncha beshafqatsan?" hikoyasi ham yuqoridagi hikoyaga mavzu jihatdan o'xshash. Bu asar yozuvchining ko'z yoshi tomgan hikoyalar turkumiga kiradi. Hikoyalar lager hayotining 1953-yilning voqealari qalamga olinadi. Hikoya "Borsa kelmas darvozasi" ning mantiqiy davomi. Bunda necha-necha aziz insonlarning xor-

zorlikda o'lib ketib, Generalning itini esa izzat-ikrom bilan ko'mishi voqeasi roviyni g'azabga keltirishi, 72 odamning yong'indan bo'g'ilishini indamay tomosho qilib o'tirgan Demyanov qilmishlari tasvirlanadi. Ammo hikoyada Rasulov obrazi kiritilganki, u imon-e'tiqodi butun, insonparvar kishi sifatida asardan joy olgan.

"Ot bilan suhbat" hikoyasida ham sobiq tuzumning jirkanch kirdikorlarining mevasi- majruqlangan ot timsoli tasvirlangan. Hikoyada otning hukumatga qilgan yaxshiliklari evaziga faqatgina azob-uqubat topgani, hatto nasl qoldira olmasligi, yorug' jahonni ko'ra olmasligi tasvirlangan. Ya'ni bu hikoyada ham erksizlik mavzusi ko'tarilgan.

Said Ahmadning mustaqillik davrida yaratgan hikoyalari mavzu jihatdan dolzarb va kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. Yozuvchining "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi mavzusi ham xalqimiz boshiga tushgan qatag'on dahshati bilan ifodalanadi. Hikoyani yozuvchi "Sobiq sho'ro tergovchilari qo'lida azob chekkan yurtdoshlarimga bag'ishlayman" deb boshlayman. Xalq orasida obro' topgan polvonning o'g'li juda ko'p oilalarni yostig'ini quritadi, otasini la'natga qoldiradi. Jalol polvon davralarda kuragi yerga tegmasdan kurashsa-da, o'g'lining qilmishi polvonning qaddini bukadi. Juda ko'p insonlarning umriga zomin bo'lgan o'g'li xalqning qarg'ishiga qoladi va xorlikda o'lim topadi. Yozuvchi asarda shunday mavzuni ochib beradiki, o'quvchi bundan ta'sirlanmasdan qolmaydi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning mustaqillik davridagi ijodi sermahsul bo'ldi. Ayniqsa, yozuvchining bu davrda yozgan hikoyalari o'zining badiiy-estetik yetukligi bilan ajralib turadi. Hayotning eng muhim, muammoli vaziyatlarini, o'tmishning inson ro'hiyatiga ta'sir qilgan momentlarini kichik epik Janrga, hikoyaga badiiy akslantirishda Said Ahmad mahorati ko'zga tashlangan. Yozuvchining har bir hikoyasi badiiy mustahkamligi bilan adabiyotshunoslar e'tiborini ham o'ziga jalg etdi. Undagi tasvir uslubi, badiiy tilning betakrorligi, obrazlar yorqinligi yozuvchi mahoratidan darak bergen. Dolzarb mavzularni asar kompozitsiyasiga singishi ham hikoyalarning badiiy mustahkamligini belgilagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Normatov U. Said Ahmad (Adabiy portret). – T., 1971.
2. G‘afurov I. Prozaning shoiri. – T., 1984.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002.
4. N.Shukurov va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1979.
5. Said Ahmad. Qorako‘z majnun. – T.: O‘zbekiston, 2001.